

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATION TA'LIM O'QUVCHILAR NUTQIY TAFAKKURINI O'STIRISHNING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10718403>

**M. Muxtoriy**

*FarDU o'qituvchisi*

**D.Toshmatova**

*FarDU o'qituvchisi*

[m\\_muxtoriy@mail.ru](mailto:m_muxtoriy@mail.ru)

### Annotation

Barkamol inson shaxsini shakllantirishdagi muhim vazifa erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan. Fikrlash jarayoni har bir insonda o'ziga xos tarzda mavjud bo'lib, fikr yuritish insonni inson sifatida mavjud ekanligi, uni ruhan va aqlan sog'lom ekanligidan dalolat beradi. Fikrlash-biror masala yechimini izlash, jumboqlarni javoblarini topish jarayoni sanaladi.

### Kalit so'zlar

*nutq, tafakkur, fikr, mustaqil fikrlash, ko'nikma, malaka, muammoli vaziyat, aqliy faoliyat, bilim.*

### KIRISH

Mustaqil fikr yuritish inson olida ko'ndalang turgan muammoni o'ziga xos maqsadga erishish uchun mavjud bilimga tayanish asosida tanlangan usullar va vositalar ko'magida erishishga qaratilgan aqliy faoliyatdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish fanidan tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablaridan biri o'quvchilarni nutqiy tafakkurini oshirib ijodiy fikrlashga o'rgatishdan iboratdir.

Har bir darsda o'quvchining ijodiy fikrlash doirasini kengaytirib borish uchun axborot texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining har bir savol yoki topshirig'iga munosib javob berish uchun fikrlashga majbur bo'ladi va bilimiga tayangan holda o'z fikrini bayon qiladi. Ko'p hollarda o'qituvchi darslikdagi savol qanday bo'lsa shunday beradi va javob ham aynan qabul qilinadi. Bunday hollarda ijodiy fikrlash jarayoni sodir bo'lmaydi. Buning uchun muammoli ta'lim usullarini qo'llash lozim. Ta'limga muammoli yondashuv o'quvchini tayyor bilim, muayayan chegara, belgilangan qolip asosida fikrlashdan bir oz bo'lsada chetlashtiradi. Darslarda muammoli metodlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Yurtimizda jamiyatning ma`naviy yuksalishi, fuqarolar, xususan yosh avlodning ma`naviy-axloqiy kamoloti masalasiga istiqlolning ilk yillaridanoq kuchli e`tabor berilib, bu y o`nalishda aniq maqsad va vazifalar belgilandi.

Mamlakatimizda intelektual va madaniy salohiyat noyob boylik, nodir iste'dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini unutishga haqqimiz yo'q.<sup>73</sup>

O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda avvalo, o'g'zaki nutqni rivojlantirishdan boshlanadi. Bu borada innovatsion ta'limgiz hozirda o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Aql - buyuk tuyg'u, insonga xos tuhfa. Aql-idrok insonga fikrlash, mulohaza yuritish, tushunish va eslab qolish, xulosalar chiqarish imkonini beradigan noyob ruhiy hodisadir.<sup>74</sup>

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqini o'stirishda innovatsion ta'limgizdan foydalanib ularga media vositalar orqali hikoyalarni berib borsak, o'quvchilar ham tinglab ham eshitishi orqali ularning fikrlash doirasi kengayadi, nutqi ravonlashadi. Biz tadqiqotimiz jarayonida o'quvchilarga hikoyalarning o'qituvchi tomonidan yozilgan audio va unga mos rasmlli taqdimot orqali o'tkazish metodikasini tavsiya qildik.

Ushbu metodikada, o'qituvchi dars o'tilishidan avval o'tiladigan hikoya matnini tinch, shovqinsiz holda o'qib audio variantini yaratib oladi va unga mos rasmlar kolleksiyasini yig'adi. Bu rasmlarni animatsion shaklda tadqimotga joylaydi va audio variantni ham joylaydi. O'quvchilar kitobdagagi matn blan shu variantda tanishadil;ar. Mavzuni mustahkamlash uchun esa, taqdimot so'ngida bir nechta savollar yoki test yaratuvchi dasturlarda test yaratadi. Bu metodikadan foydalanishning yaxshi tomonlari o'quvchilar bir vaqtning o'zida ham tinglaydilar ham mavzuga mos rasmlarni tomosha qiladilar. O'quvchi audio vva vizual tasvirlar birlashtirilgan ma'lumotlarni yaxshi yodlab qola oladi.

## **NATIJALAR**

Boshlang'ich sinflar ichida ushbu metodikamiz o'tkazilganda quyidagicha natijaga erishdik.


No	Sinf	O'zlashtirish atkichi	"Notali so'zlar" metodikasi ngandan keyingi ko'rsatkich
----	------	-----------------------	---------------------------------------------------------

<sup>73</sup> Sh. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. 22-bet J: 416-bet

<sup>74</sup> 74 D.FAYZIXO'JAYEVA SH.NEGMATOVA MANTIQ TARIXI VA NAZARIYASI Falsafa yo'nalishi talabalari uchun O'quv qo'llanma Samarqand-2021 7-bet.

1	2-sinf	47 %	56 %
2	3-sinf	51 %	62 %
3	4-sinf	53 %	65 %

Ushbu jadvalni diagrammada quyidagicha ifodaladik.



## MUHOKAMA

Ta'lrim-tarbiya jarayonida dars samaradorligini oshirish, o'quvchilar bilimini mustahkamlash, o'quvchilarning darsga qiziqishlarini oshirishda innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llash tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stirib ijodiy fikrlashini oshiradi. Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Ushbu o'rinda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari birinchi sinfdayoq O'zbekiston ta'lim tizimiga kirib kelgan muammoli ta'limdan foydalanmog'i lozim deb o'ylayman. Agar birinchi sinfda muammoli ta'limning birinchi darajasidan foydalanib maqsadga erisha olsak uchinchi va to'rtinchi sinflarda ikkinchi darajadan qisman foydalana olamiz.

## XULOSA

Bugungi kunda uzlusiz ta'lim tizimimizda amalga oshirilayotgan tub islohotalarini yanada takomillashtirish uchun kompyuter texnologiyasini ta'lim jarayonidagi o'rni, uning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ilmiy-tadqiqot misolida yoritish, kompyuter vositalaridan foydalanishga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj darajalarini yana bir bora ko'rib chiqishni talab etadi.

Bugun boshlang`ich sinf o`qituvchisi zimmasiga ulkan mas`uliyat yuklanadi. Chunki sog`lom va barkamol insonni yetishtirish, uni tarbiyalash boshlang`ich sinf o`qituvchisini asosiy vazifasi sanaladi. AKT ni bilish o`qituvchiga anchagina qulayliklar yaratadi.O`zaro ma`lumot almashish,ta`limdagi yangiliklardan xabardor bo`lish,o`zi yaratgan yangiliklarni oson ommalashtirish,doimiy o`z ustida ishlashiga sharoit yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. 22-bet J: 416-bet
2. D.FAYZIXO'JAYEVA SH.NEGMATOVA MANTIQ TARIXI VA NAZARIYASI Falsafa yo'nalishi talabalari uchun O'quv qo'llanma Samarqand-2021 7-bet.
3. Muxtoriy M. The Significance of Word Meaning in Forming the Speech Skills of Primary School Students //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. - 2023. - T. 2. - №. 6. - C. 41-44.
4. Akbarova, Z., and M. Muxtoriy. "Pedagogical Conditions of Speech Development Technology in Primary Class Students." Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2.6 (2023): 37-40.
5. Sodirzoda M. M. THE ROLE OF LANGUAGE EXPRESSIONS IN FORMING THE SCIENTIFIC WORLD VIEW OF PRIMARY CLASS STUDENTS //American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. - 2023. - T. 12. - C. 53-56.
6. Mohro'y M. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LUG'AT ZAHIRASINI BOYITISHNING LINGVISTIK ASOSLARI //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. - 2022. - T. 1. - №. 12. - C. 78-86.
7. Sodirzoda M. M. WAYS TO USE APHORISMS IN THE CULTIVATION OF SPEECH OF JUNIOR SCHOOL PUPILS //Galaxy

International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 985-986.

8. Mukhtoriy M. S. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQINI HIKOYALAR YORDAMIDA O'STIRISHNING MNEMOTEXNIKASI //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 183-188.